

2 fevral 2026 yil.
07/ 1-1-15-son



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin

“TASDIQLAYMAN”
Innovatsion rivojlanish agentligi
Xotin-qizlar va erkaklar uchun
teng huquq hamda
imkoniyatlarni ta’minlash
masalalari bo’yicha maslahat-
kengashi raisi o’rinbosari



E.Kabulov

Xotin-qizlar masalalari bo’yicha maslahat kengashi yig’ilishining

1-son BAYONI

2026-yil 2-fevral

Toshkent shahri

- Raislik qiluvchi:** - Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat - kengashi raisi o’rinbosari **E.Kabulov**
- Ishtirok etganlar:** - Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat kengashi a’zolari, Markaziy apparat va tizim tashkilotlaridagi xotin-qizlar.

KUN TARTIBI

1. Innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 6-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat-kengashi tashkil etish to’g’risida” 130-son buyrug’i ijrosi.
2. Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 30-yanvardagi “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda innovatsion faoliyatga keng jalb qilish bo’yicha 2025-yil uchun” 7/4-3-sonli chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan.
3. Turli masalalar.

(Kabulov, Xakimova, Ergashev, Xaydarov, Fayazova, Kabulov)

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat-kengashi raisi o’rinbosari E.Kabulov yig’ilishda

birinchi masala yuzasidan soʻzga chiqib, Innovatsion rivojlanish agentligi direktorining 2024-yil 6-sentabrda 130-son buyrugʻi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar boʻyicha maʼlumot berdi.

Ikkinchi masala yuzasidan Innovatsion rivojlanish Agentligining 7/4-3-sonli chora-tadbirlar rejasi ijrosi boʻyicha amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi. Xususan:

1-band. Agentlikning boshqaruv tizimida xotin-qizlarning rolini oshirish hamda ijtimoiy-huquqiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash yuzasidan 2025-yilda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlar eshitildi va kelgusida qilinishi lozim boʻlgan rejalar muhokama qilindi.

2-band. Xotin-qizlarning muammolarini oʻz vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj boʻlgan va ogʻir ijtimoiy-huquqiy, psixologik va maʼnaviy yordam koʻrsatish boʻyicha Agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boʻlimi bilan hamkorlikda “Kelajak avlodni tarbiyalashda oilalarda sogʻlom muhitni taʼminlash” “Oila maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar maskani” mavzularida seminar-terninglar oʻtkazilib, ularda Agentlikda mehnat qilayotgan xotin-qizlar oʻzlarini qiziqtirgan savollariga javob olishgani hamda psixologik va huquqiy savodxonligi oshirilgani maʼlum qilindi.

3-band. Iqtidorli, faol va tashabbuskor xotin-qizlarni ragʻbatlantirish boʻyicha 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan madaniy tadbirlar tashkil etilib, ularda faol xotin-qizlar alohida eʼtirof etilgani, shuningdek, tashkilotlararo volleybol boʻyicha tashkil etilgan musobaqada Agentlik nomidan ishtirok etilganligi, hisobot davrida xotin-qizlar uchun turli madaniy-maʼrifiy tadbirlar va sogʻlomlashtirish markazlariga **43 ta** yoʻllanmalar berilganligi taʼkidlandi.

4-band. Agentlik tizimida hamda ilmiy va innovatsion sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini taʼminlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli va faolligini oshirish maqsadida olib borilayotgan ishlar samarasi natijasida 2025-yil davomida oliy taʼlimdan keyingi taʼlimga qabul qilingan izlanuvchilarning **8 552 nafar** (48%)ini ayollar tashkil etganligi, shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini taʼminlash borasida soʻrovnoma tashkil etilganligi, bunda barcha xotin-qizlar faol ishtirok etganligi hamda ijtimoiy oʻrganishlar oʻz natijasini berganligi taʼkidlab oʻtiladi.

5-band. Xotin-qizlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga keng jalb qilish boʻyicha Agentlik tomonidan 2025-yil mart oyida eʼlon qilingan “Olima ayollar” tanlovi doirasida xotin-qizlar tomonidan umumiy **540 ta** loyiha talabnomasi taqdim

etilganligi va yaqin kunlarda tanlov g'oliblari e'lon qilinishi bildirildi. Shuningdek, 2025-yil davomida **17 nafar** tadqiqotchi xotin-qizlar xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborilishiga erishildi.

6-band. Iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rahbarlik lavozimlariga tayyorlashni tizimlashtirish hamda malakasini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida 2025-yilda Axborot xizmati rahbari **M.Fayazova** hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i **F.Xakimova** joriy yilning 27-yanvar - 8-fevral kunlari Davlat boshqaruvi akademiyasida, shuningdek, **N.Mirraximova** "Yuqumli kasalliklar milliy protokollar asosida", **N.Abidjanova** davlat fuqarolik xizmatchilari uchun tashkil etilgan "Davlat fuqarolik xizmatchisining etikasi" kurslarida malaka oshirganliklari aytib o'tildi.

7-band. Ilm-fan sohasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar va ularning natijalarini targ'ib qilish bo'yicha Agentlikning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarida *#olima_ayollar xeshtegi* asosida doimiy ravishda yangiliklar berib borilishi yo'lga qo'yilganligi, shu bilan birga, Markaziy tele-radio kanallar bilan hamkorlikda yosh olimalar, tadqiqotchilar faoliyatini keng targ'ib etish ishlari tashkil etilganligi bildirildi.

Kun tartibidagi **uchinchi masala** yuzasidan Axborot xizmati rahbari M.Fayazova so'zga chiqib, Agentlikda xotin-qizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan amaliy chora-tadbirlar, shuningdek, davlat xizmatchisining kiyinish odobi, jamoada intizomga rioya qilish, jamiyatda yurish-turish qoidalari haqida to'xtalib o'tdi.

Agentlikda xotin-qizlar faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish, sog'lom turmush tarziga jalb qilish maqsadida Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi **qaror qiladi:**

1. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i F.Xakimova har chorakda oiladagi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni asrash, ayollarni ma'nan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkillashtirib borsin.

2. Ilmiy va innovatsion faoliyatga moliyaviy resurslar va xorijiy grantlarni jalb qilish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi M.Ismoilova xotin-qizlar o'rtasida turli sport musobaqalarini hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilish choralari ko'rsin.

3. Yuridik bo'lim boshlig'i B.Xaydarov yilda 2 marotaba xotin-qizlarning huquqlari va oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy asoslari yuzasidan seminarlar tashkil etsin.

4. Ilmiy loyihalar bo'yicha davlat buyurtmalarini shakllantirish va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i N.Mirraximova yilda 2 marotaba reproduktiv salomatlik bo'yicha davra suhbatini tashkil etsin.

5. Agentlik Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi R.Ergashev madaniy va sog'lomlashtirish markazlariga yo'llanmalar berishni tashkil etsin.

6. Axborot xizmati rahbari M.Fayazova Agentlikning rasmiy veb-sayti tegishli bo'limlarini tashkilotda gender tengligini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarga oid axborotlar bilan muntazam to'ldirib borilishini ta'minlasin.

Yig'ilish kotibi
N.Mirraximova